
"Yurtning kuchi – birlikda, qadri esa tinchlikdadir!" shiori ostida
"Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi"ning tuman bosqichi o'tkazildi

Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini tadbiq etish, ularni qutqaruvchi kasbiga qiziqtirish, harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishlariga sport musobaqalari va ko'rik tanlovlari tashkil etish maqsadida Qo'shtepa tumani Yoshlar ishlari agentligi va tuman FVB bilan hamkorlikda Favqulodda vaziyatlar bo'limiga biriktirilgan 2-sektor hududidagi mahallalarda otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogining tuman bosqichi o'tkazildi. Musobaqa 2-sektor hududidagi 6 ta mahallalardagi yoshlar o'rtasida o'tkazilib, har bir mahalla fuqarolar yig'inidan bittadan jamoa qatnashdi. Jamoalar 5 ta shart bo'yicha bellashdilar.

Har bir shartlar odil xakamlar tomonidan baholanib, umumjamoa hisobida

1-o'rin "Kattaboltako'l", 2-o'rin "O'qchi", 3-o'rin "Balandmasjid" mahallasi yoshlari g'olib deb topildi.

Musobaqa yakunida har bir jamoa vakillari tuman hokimligi, Yoshlar ishlari Agentligi va Favqulodda vaziyatlar bo'limi tomonidan munosib taqdirlanib, esdalik sovg'alari topshirildi.









2024-09-25 17:39:05